



Viloyat hokimligi tomonidan DTPI ga birlashtirilgan Oltinsoy tumanidagi maktablarga metodik yordam ko'rsatish chora-tadbirlarining amaliy ijrosi yuzasidan Oltinsoy tumanidagi 40-umumta'lim maktabiga o'quv-uslubiy ko'mak berish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasidan birlashtirilgan professor-o'qituvchilarning joriy yilning 20-noyabr kuni maktabga tashrifi davomida amalga oshirilgan ishlari

HISOBOTI

Oltinsoy tumanidagi 40-umumta'lim maktabiga Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) R.V.Salomova, kafedra professor-o'qituvchilari S.Do'stov, D.Meliyevlar tashrif buyurdi.



Dastlab maktab direktori A.Jo'rayev, so'ng ijodkor o'qituvchi B.Ostonaqulov bilan suhbat olib borildi. O'quvchilarning tetapoya ijodiy mashqlarini viloyat miqyosidagi OAVda yoritish, shuningdek, to'plam(bayoz)larda chop ettirish masalasida amaliy yordam berish kerakligi to'g'risida aytib o'tildi. Bu borada ayni kunlarda materiallari jamlanayotgan Institut ijodkorlari bayozida Oltinsoy ijodkor o'qituvchi va o'quvchilari ijodiga alohida joy ajratilishiga kelishib olindi.



Maktab direktor o'rinbosari N.Tangriberdiyev bilan yuzma-yuz suhbatda o'quv faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan maktabda amalga oshirilayotgan ishlar bilan atroflicha tanishib chiqildi, 2024-2025-o'quv yilida bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichlarini yuqori pog'onalarga ko'tarish maqsadida "Abituriyentlar tayyorlash shtabi" ishi doirasida Attestatsiya testlarini kundalik ishlab borishni tashkillashtirilishi bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.



Kunning I navbatida bitiruvchilar bilan Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), v\b dotsent R.V.Salomova, o'qituvchilar S.Do'stov, D.Meliyevalar


tomonidan qaysi kasbni egallashi, shuningdek, bu yo'lda qanday ishlar amalga oshirilayotgani to'g'risida suhbat olib borildi.




Maktabning ijodkor o'qituvchisi B.Ostonaqulov bilan birga DTPi ijodkor o'qituvchisi Sunnatullo Rahmon 10-sinf o'quvchilari bilan uchrashib, ular orasida ijod qilayotgan o'quvchilarning ijodi bilan qiziqdi va ularga shoira Xolida Ismoilning she'riy to'plamidan sovg'a qilindi.




Darslari davomida qo'llanadigan metodlar to'g'risida "Abituriyentlar tayyorlash shab'i" xonasida o'qituvchilar bilan o'tkazilgan yig'ilishda har bir o'qituvchidan so'rab chiqildi, ustozlar R.Salomova, D.Meliyevalar tomonidan maktablarda qiziqarli darajada dars o'tish metodlari xususida mahorat darslari a'lo darajada o'tildi, Sumnatullo Rahmon she'rlari bilan maktab o'qituvchilariga ma'naviy ozuqa baxsh etdi.



Yig'ilish so'ngida maktabdagi ijodkor o'qituvchi B.Ostonaqulovga kafedra mudiri R.Salomova tomonidan Sunnatullo Rahmonning "She'riyat bu – sochilgan umr" nomli she'riy to'plamini va so'ng kutboxona fondi uchun 10dan ortiq nomdagi ilmiy va badiiy asarlar kitoblari maktab direktori A.Jo'rayevga DTPi "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini tomonidan hadya qilindi.



Olinsoy tumanidagi 40-sonli o'rta maktab o'qituvchilari faoliyatini yana-da yaxshilash masalasida metodik va amaliy jihatdan ko'maklashish bo'yicha tashrif buyurgan institut jamoasi tomonidan maktab direktori, maktab direktori o'rinbosarlariga o'qituvchilar bilan alohida shug'ullanishlari to'g'risida haftalik topshiriqlar va ularning natijalari ustida ishlash topshirig'i berildi.



Maktab direktori:



A. Jo'rayev